



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



**ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026**

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъминлар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlakat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131
20.	Doniyev Shahob O'tkir o'g'li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
21.	Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta'minlash	142





IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONLARIDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIALARNING TUTGAN ROLI HAMDA AHAMIYATI

Doniyev Shahob O‘tkir o‘g‘li

*iqtisodiyot fakulteti,
iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Qarshi davlat universiteti
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144*

Annotatsiya. Ushbu maqoladamiz mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy boshqaruvni joriy etishdagi ta‘siri yoritiladi. Shuningdek, investitsion muhitni yaxshilash va samarali investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya muhiti, iqtisodiy o‘rinish, raqobatbardoshlik, investitsion jozibadorlik, xorijiy investorlar.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ПРОЦЕССАХ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Дониев Шахоб Уткир угли

*экономический факультет,
студент 2-го курса экономики
Каришинский государственный университет
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144*

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение прямых иностранных инвестиций в развитии экономики страны. Освещается влияние иностранных инвестиций на увеличение объемов производства, создание новых рабочих мест, внедрение передовых технологий и современного управления. Также даются выводы по улучшению инвестиционного климата и совершенствованию эффективной инвестиционной политики.

Ключевые слова: Прямые иностранные инвестиции, экономическое развитие, инвестиционный климат, экономический рост, конкурентоспособность, инвестиционная привлекательность, иностранные инвесторы.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOREIGN DIRECT INVESTMENTS IN ECONOMIC DEVELOPMENT PROCESSES

Doniyev Shahob Utkir oglu

*Faculty of Economics,
2nd year student of Economics
Karshi State University
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144*

Abstract. This article analyzes the role and importance of foreign direct investment in the development of the country's economy. The impact of foreign investments on increasing production volumes, creating new jobs, introducing advanced technologies and modern management is highlighted. Conclusions are also given on improving the investment climate and improving effective investment policy.

Keywords: Foreign direct investment, economic development, investment climate,





economic growth, competitiveness, investment attractiveness, foreign investors.

Kirish

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv hamda iqtisodiy integratsiya sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashning eng muhim strategik omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon iqtisodiyotida kapital harakatining erkinlashuvi hamda texnologik taraqqiyot va xalqaro raqobatning kuchayishi natijasida TTXI nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki ilg‘or texnologiyalar, innovatsiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari va xorijiy ishlab chiqarish madaniyatini milliy iqtisodiyotga jalb qilishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy nazariya va o‘tkazilgan amaliy tajribalarimiz shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini bir necha barobarga oshishi, mehnat unumdorligining yuksalishi, eksport salohiyatining kengayishi hamda iqtisodiyotda mavjud tarmoqlarning tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilinishiga o‘zining sezilarli ta‘sirini ko‘rsatadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan hamda o‘tish davrida bo‘lgan mamlakatlarda kapital yetishmovchiligi sharoitida TTXI iqtisodiy sohadagi o‘rishni jadallashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalarning samaradorligi investitsion muhit, institutsional sifat, huquqiy tizim barqarorligi, infratuzilma rivojlanganlik darajasi hamda inson kapitalining holatiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Mazkur omillar yetarli darajada shakllanmagan sharoitda xorijiy investitsiyalar kutilgan iqtisodiy samarani bermasligi yoki milliy manfaatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoli ham mavjud. Shu sababli, TTXIning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyatini kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Bugungi kundagi globallashuv jarayonlarida barcha davlatlar xorijiy investitsiyalarni o‘z iqtisodiy sektorlariga jalb qilish masalasi ustida bosh qotirmoqdalar. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyotga xorijiy kapital oqimini kengaytirish hamda xalqaro investitsiya jarayonlariga faol integratsiyalashuvni ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli institutsional va tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar doirasida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining takomillashtirilishi hamda biznes yuritish sharoitlarining liberallashtirilishi TTXI hajmining oshishiga zamin yaratmoqda. Aynan shu maqsadda, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan 23-iyun 2025-yilda **“Mamlakatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishning qo‘shimcha choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-97-sonli Farmon**²⁶larining chiqarilishi esa mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish masalasini yanada qo‘llab-quvvatlash va kengaytirish uchun eng muhim asoslardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga ushbu farmon doirasida bir qator amaliy vazifalar belgilandi hamda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari bir qator iqtisodchi olimlar ham ushbu sohaga doir ko‘plab fikrlarni aytib o‘tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolamizda yoritilayotgan mavzuni tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslash usullari, ta‘sir etuvchi omillar tahlili, kompleks yondashuv, induksion va deduksion tahlil usullari, ekspert tahlili, ko‘p variantli prognoz, kuzatishlar hamda statistik tahlil, sifat hamda miqdor tahlili va shu kabi ko‘plab tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullar orqali yuqorida tilga olingan sohalar har tomonlama tadqiq qilinib, yakuniy xulosalar berilgan.

²⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-7594188> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.06.2025 yil sanasidagi PF-97-sonli Farmoni





Tahlillar va natijalar

Ushbu maqolamiz doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) iqtisodiy o‘rnatish ko‘rsatkichlariga ta‘sir statistik va taqqoslama tahlil usullari asosida yoritiladi. TTXI hajmi va YAIM o‘rnatish sur‘atlari, sanoat ishlab chiqarishi, eksport salohiyati hamda bandlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi ishlab chiqarish hajmining kengayishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tahlillar investitsion muhitning barqarorligi, huquqiy kafolatlar, infratuzilma rivoji va soliq imtiyozlari TTXIning jalb etishda muhim omil ekanligini ko‘rsatib berdi. O‘rganishlar asosida shuni ma‘lum qilamizki, TTXI oqimining ortishi quyidagi sohalarga o‘z ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi:

1-rasm.

TTXI oqimlarining ortishi natijasida o‘zgaruvchi sohalar*



*O‘tkazilgan tahlillar asosida muallif ishlanmasi. Manba:

https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1277.

Ayniqsa, qayta ishlash sanoati, energetika, qurilish materiallari va xizmat ko‘rsatish sohalarda TTXI yuqori samaradorlik bergani kuzatildi. Investitsiya jalb qilingan hududlarda infratuzilma rivoji tezlashgani va kichik biznes faolligi oshgani aniqlandi. Shu bilan bir qatorda, TTXIning iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta‘sir har doim ham bir xil va avtomatik xarakterga ega emas. Biroq, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga real ta‘sirini baholash, ularning samaradorligini aniqlash va mavjud muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlarimiz davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta‘sir statistik, dinamik va taqqoslama tahlil usullari asosida o‘rganildi. Tahlil jarayonida TTXI hajmi bilan YAIM o‘rnatish sur‘atlari, sanoat ishlab chiqarishi, eksport hajmi, bandlik darajasi hamda texnologik yangilanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi. Quyidagi jadvalimizda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mavjud iqtisodiy sohalarga yo‘naltirish darajalariga qarab aynan shu iqtisodiy tarmoqning rivojlanish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, TTXIning Yalpi ichki mahsulot hajmining o‘rnatish sur‘atlariga qay darajada bog‘liqligi ham ifodalangan.

1-jadval.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy tarmoqlarga ta‘sir darajasi*

Ko‘rsatkichlar	TTXI past daraja	TTXI o‘rta daraja	TTXI yuqori daraja
YAIM o‘rnatish sur‘ati (%)	3–4 %	5–6 %	7–9 %
Sanoat ishlab chiqarishi o‘rnatishi	Past	Barqaror	Yuqori
Yangi ish o‘rinlari	Cheklangan	O‘rtacha	Ko‘p miqdorda
Eksport hajmi	Sekin o‘rnatish	Barqaror o‘rnatish	Tez o‘rnatish
Texnologik yangilanish darajasi	Past	O‘rtacha	Yuqori





*Manba: <https://stat.uz/uz/> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra muallif ishlanmasi

Jadvalimizda berilgan ma’lumotlarga asoslanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hajmi texnologik yangilanishlar darajasi, eksport hajmi hamda sanoat ishlab chiqarish sohasidagi o‘shish sur‘atlari bilan aloqadorlik darajalari haqida fikr yuritdik. Shu bilan birga, tahlillar investitsiya samaradorligi bevosita quyidagi omillarga bog‘liqligini ko‘rsatdi:

- Mavjud huquqiy kafolatlarning mustahkamligi
- Soliq va bojxona tizimida berilgan imtiyozlar
- Milliy valyutaning barqarorligi
- Transport-logistika infratuzilmasining tashkil qilinganligi
- Siyosiy hamda iqtisodiy barqarorlik.

Jahon amaliyoti tajribalari shuni ko‘rsatadiki, TXI oqimlari iqtisodiy liberallashtirish, institutsional islohotlar va ochiq bozor siyosati bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Masalan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisobotlarida investitsion muhit barqarorligi, huquqiy kafolatlar va infratuzilma rivoji TTXIni jalb qilishning asosiy omillari sifatida qayd etiladi. Xuddi shu maqsadda mamlakatimizda ham ushbu sohani yanada rivojlantirish hamda xalqaro tajribalarni amaliyotimizga tatbiq qilish maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya siyosatini liberallashtirish, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va biznes muhitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar TTXI hajmining oshishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda energetika, kimyo sanoati, to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalari investitsiya uchun ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Bu esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va eksport tarkibini kengaytirishga zamin yaratib bermoqda. Olingan natijalarimiz asosida esa iqtisodiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha ilmiy jihatlariga asoslangan fikrlar berildi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillarimizga tayangan holda xulosa qilib aytishimiz mumkinki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) nafaqat zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, balki ular moliyaviy resurslar oqimini ta‘minlaydi hamda texnologik yangilanish, boshqaruv samaradorligi, institutsional modernizatsiya va xalqaro integratsiyani jadallashtiradi. Jahon tajribalari asosida esa TTXI iqtisodiy o‘shishning barqaror va uzoq muddatli modelini shakllantirishda muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘lganini bilgan holatda biz ham xuddi shu yo‘nalishdagi zamonaviy modellarni iqtisodiyotimizga joriy qilish masalasi ustida turibmiz. Yana shuni ham ta‘kidlash kerakki, TTXI oqimlari milliy iqtisodiyotda kapital yetishmovchiligini qoplash bilan bir qatorda, ishlab chiqarish omillarining samaradorligini oshiradi, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi hamda mamlakatning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini ta‘minlaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar sharoitida TXI sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida TXI iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport geografiyasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan liberallashtirish siyosati, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi va biznes yuritish sharoitlarining yaxshilanishi investitsiya oqimlarini rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.06.2025 yil sanasidagi PF-97-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-7594188>
2. Bekmurodov A.Sh., Jo‘rayev A.B. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va ularning milliy iqtisodiyotga ta‘siri. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2023. – 212 b.





3. Boboyev Sh.Sh. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion iqtisodiyot. – Toshkent: UWED Press, 2022. – 168 b.
4. World Bank. World Development Indicators 2024. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2024.
5. OECD. FDI Qualities Indicators: Measuring the Sustainable Development Impacts of Investment. – Paris: OECD Publishing, 2023.
6. Bakiyeva, I. (2025). O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi va ularning iqtisodiy o‘shishga ta’siri (2016-2025-yillar tahlili). Qo‘qon Universiteti xabarnomasi, 16, 179–183.
Manba: https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1277
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi yillik hisobotlar (2016-2025-yillar) - Toshkent. Manba: <https://stat.uz>.
8. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., Sayek, S. FDI and Economic Growth: The Role of Local Financial Markets. // Journal of International Economics, 2004, Vol. 64(1), pp. 89–112.

